

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARI TAHLILI

*Rahmonqulova Laylo Samandar qizi*

*O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti filologiya  
fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Usarova Laylo*

**Annotatsiya**

Ushbu maqola taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi haqida atroflicha yoritib o'tadi.

**Kalit so'zlar:** ijod mahsullari, qissa, davr, ona, obrazlar.

Taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi, hozirgi kungacha xalqimiz ardog'ida bo'lgan adibimiz O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentda Do'mbirobod mahallasida oddiy bir oilada tug'ilgan. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keying mashaqqatli davrga to'g'ri keladi." O'sha davrda non tanqis bo'lgani bilan kutubxonalarda kitob ko'p edi." deya eslagan edi yozuvchi o'z xotiralarida. [1]

Ko'p kitob o'qish barobarida O'tkir Hoshimov pochta xat tarqatuvchi bo'lib ishlaydi. Aynan mana shu ish O'tkir Hoshimovni oddiy odamlarning kitobdagi hayotdan butunlay boshqa turmushiga oshno qildi.

Bo'lajak yozuvchi 1964-yilda O'zbekiston Milliy Universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limini sirdan tugatadi. "Qizil O'zbekiston", "Toshkent haqiqati", "Toshkent Oqshomi" kabi gazetalarda adabiy xodim bo'lib ishladi. Uning kitoblari juda qiziqarli va hayotiy kitob hisoblanadi.

Ijod qilgan tillari O'zbek tili Fuqaroligi SSSR va O'zbekiston Yo'nalish Nasr Janr Hikoyanavislik Shohasar, Cho'lhavosi, "To'ylar muborak", "Sizdanugina, bizdanugina", "Vijdondorisi", "Ikki eshikorasi" Yozuvchining ilk asari 1962-yilda "Po'latchavandoz" nomida ocherklar to'plamitarzida nashrdan chiqdi.

**Ijodi**

1970-yilda nashr qilingan "Bahor qaytmaydi" qissasi bo'ldi. O'sha paytda nashr qilinayotgan mafkuratarg'ibotidan iborat asarlar fonidayozuvchi O'tkir Hoshimovning oddiy insoniy munosabatlar haqidagi bu asari qorong'u osmonda chaqnagan mushakkabi eslanadi. Bu asar asosida suratga olingan videofilm o'z vaqtida eng ko'p tomosha qilingan asar sifatida tarixga kirdi. O'tkir Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. "Xazon bo'lgan bahor", "Inson sadoqati" (1975), "Vijdondorisi", "To'ylar muborak" (1979), "Qatag'on" kabidrama, komediya, bir qator kinossenariylar muallifi. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" (2001) kitobi ijtimoiy - ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. "Cho'lhavosi" nomli birinchi qissasi 1963-

yilda bosilib chiqqan. Talabchan adib Abdulla Qahhorning e'tiboriga sazovor bo'lgan. „Urushning so'nggi qurboni“, „Yanga“, „Muhabbat“, „Dehqonning bir kuni“, „Umr savdosi“, „Quyosh tarozusi“, „Oq bulut, oppoq bulut“ singari o'nlab hikoyalari, „Shamol esaveradi“ (1968), „Bahor qaytmaydi“ (1970), „Qalbingga quloq sol“ (1973), „Dunyoning ishlari“ (1982), „Ikki karra ikki-besh“ (1987) qissalari, „Nur borki, soya bor“ (1976), „Ikki eshik orasi“ (1985), „Tushda kechgan umrlar“ (1993) kabi romanlar yozgan.

Adib asarlarida zamonaviy o'zbek xalqining ma'naviy dunyosi, milliy ruhi, urfodatlari tasvirlangan. „To'ylar muborak“, „Sizdan ugina, bizdan bugina“, „Vijdon dorisi“, „Inson sadoqati“, „Qatag'on“ singari pyesalar muallif. U E. Xemenguey, K. Simonov, A. Kuprin va boshqa adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

O'tgan asrning sovet mafkurasi hukmron bo'lgan 70-yillarida O'tkir Hoshimov O'zbekiston televideniesida „Bahs“ deb nomlangan eshittirishlarni olib bordi. Bu eshittirishlar yozuvchining „Qalbingga quloq sol“, „Dunyoning ishlari“, „Nur borki, soya bor“ kabi asarlarida ko'tarilgan o'tkir ijtimoiy muammolar haqidagi bahslarning davomi bo'ldi.

Keyinchalik yozuvchi „Ikki eshik orasi“ (1986), „Tushda kechgan umrlar“ (1994) romanlarida zamondosh-asrdosh odamlar taqdirini, 20-asrning eng keskin fojiaiy hodisalari Ikkinchi jahon urushidamda mustabid tuzumning jinoyatkorona siyosati oqibatlari bilan bog'liq holda tahlil va talqin etishga urindi. Hali O'zbekistonda Sovet mafkurasi hukmron bo'lgan 1990-yilda O'tkir Hoshimov o'zi bosh muharrir bo'lgan „Sharq yulduzi“ jurnalida Qur'oni karimning ilk o'zbekcha tarjimasini chop qilishga jur'at qildi. Tarixga Gorbachev hurriyati deya kirgan "Qayta qurish va oshkoralik" davri O'tkir Hoshimovga jasorat berdi, deya aytish mumkin.

O'sha paytdagi O'zbekiston rahbariyati zehniyatida ashaddiy ateizm mavjudligi hisobga olinsa, bu haqiqatda jasoratnamunasi deya eslanadigan qadam.

“Dunyoning ishlari”

Adibning bu asari eng ezgu, eng samimiy tuyg'ular haqida, eng e'zozli zot-ONA haqida hikoya qiladi. Biz onalarning qanday inson ekanligini yaxshi bilamiz. U inson bolasini dunyoga keltiradi, yuvi taraydi, taarbiyalaydi. Qo'lidan kelganicha hech kimdan kam qilmaydi. Uning farzandi u uchun dunyodagi eng yaxshi ne'mat bo'ladi.

Hoshimovning bu asari mustaqil syujetga ega kichik boblardan ibora tarzda yozilgan. Uning tarkibiga kiruvchi asarlarga „Gilam paypoq, Alla, Oq marmar qora marmar, Tush, Oq oydin kechalar“ singari kichik hikoyalar kiradi. Bu boblarning hammasida o'li uchun har qanday mashaqqatga, jon fido qilishga tayyor ONA madh etiladi.

Bu asardagi boblar ichidan shaxsan meni eng ta'sirlantirgan hikoya bu „Iltijo“ bobi. Unda onasini yo'qotgan farzandni onasining o'limidan keying unga iltijosi aks etadi.

“ Oyi, men keldim...eshityapsizmi, oyi , men yana keldim...

... Yo’q, yo’q, oyijon ... Yig’layotganim yo’q. Bilaman , men yig’lasam, siz bezovta bo’lasiz. Hozir...hozir o’tib ketadi. Mana, bo’ldi...” [2]

Adibning rafiqasi ayan mana shu bobning yaratilishi haqida shunday degan; “ Kech vaqt uqum o’chib yonimga qarasam adasi yo’qlar, hayron bo’lib biroz kutdim, tashqarida yomg’ir ancha kuchli yog’ayotgandi. Adasidan xabar olish uchun tashqariga chiqdim qarasam, o’z xonalarida burchakka berkinib olib boshini tizzasiga qo’yib yig’layotgan ekaanlar. Qo’rqib ketdim, yonlariga brogan edim qo’lidagi qogo’ozini yerga tashladilar-u, o’zi tez chiqib ketdi. Qog’ozga yozilgan so’zlarni o’qib men ham ancha yig’lab turdim...” Bu asardagi oxirgi bobning yaratilishi xuddi shunday sodir bo’lgan. Haqiqatdan ta’sirli.

Adibning aynan sgu asari haqida O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday deydi; “ ...dostondek o’qiladi. Uni o’qib bevosita o’z onalarimizni o’ylab ketamiz”[3]. Adibning o’zi e’tirof etganidek “ ... umuman, o’zbek ayoli haqida va umuman, onalar to’g’risida”. Adibning “Dunyoning ishlari” asari to’liq o’z hayotidan olib yozilgan, faqat asarda obrazlar ismlari almashtirigan. Bu asar avtobiografik asar hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O’. Hoshimov Dunyoning ishlari- 1982
2. D. Quronov Adabiyotshunoslikka kirish
3. Karimov H. O’tkir Hoshimov. Toshkent. “Yozuvchi”, 2002

[1] O’zLib kutubxonasi

[2] Dunyoning ishlari, iltijo bobidan.

[3]O’zbekiston Qahramoni va O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad nutqidan.